


## QURILISH ISHLARI

2019- yil (yanvar-oktyabr)

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 3 861,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmi

(ulushi, mlrd.so'm)




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 571,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 7,9 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,4 % punktga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,0 %i to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil qilgan holda 2 432,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

#### **Yirik pudrat tashkilotlari**

- **o'sish sur'ati -**  
107,9 %


- **ulushi -**



#### **Kichik korxona va mikrofirmalar**

- **o'sish sur'ati -**  
120,4 %


- **ulushi -**



#### **Norasmiy sektor**

- **o'sish sur'ati -**  
95,4 %


- **ulushi -**




Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,5 % punktga kamayib, 22,2 % ni tashkil etdi va 857,8 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 95,4 % ni tashkil etgani kuzatildi.

### Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 200,4 mlrd. so`m yoki 2018 yilning yanvar-oktyabriga nisbatan 2,9 m. ko`p qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3660,7 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o'sish sura'ti 142,5 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda 5,2 % va 94,8 % ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish,rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 72,7 %i yoki 2805,6 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 228,9 mlrd. so`m ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 132,7 % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 1818,9 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 189,5 % yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga 757,8 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 % yangi qurilish bo`yicha ishlar bajarildi.

**Hududlar bo'yicha qurilish ishlari**


**( 2019 yil yanvar-oktyabr )**

(mild. so'm)

	<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, foizda</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3861,1</b>	<b>111,8</b>	<b>2805,6</b>
<b>shaharlar:</b>			
<b>Qarshi</b>	<b>1124,9</b>	<b>122,1</b>	<b>822,0</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>216,6</b>	<b>115,6</b>	<b>162,7</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>G'uzor</b>	<b>140,9</b>	<b>99,5</b>	<b>95,4</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>114,2</b>	<b>104,0</b>	<b>81,4</b>
<b>Qamashi</b>	<b>107,6</b>	<b>98,3</b>	<b>64,5</b>
<b>Qarshi</b>	<b>348,3</b>	<b>105,5</b>	<b>283,4</b>
<b>Koson</b>	<b>420,6</b>	<b>111,7</b>	<b>274,9</b>
<b>Kitob</b>	<b>271,8</b>	<b>115,8</b>	<b>207,6</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>105,7</b>	<b>104,5</b>	<b>64,5</b>
<b>Muborak</b>	<b>187,0</b>	<b>102,6</b>	<b>134,8</b>
<b>Nishon</b>	<b>92,5</b>	<b>105,2</b>	<b>61,7</b>
<b>Kasbi</b>	<b>133,9</b>	<b>106,0</b>	<b>92,6</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>278,7</b>	<b>113,7</b>	<b>204,8</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>104,6</b>	<b>107,6</b>	<b>95,4</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>213,8</b>	<b>105,7</b>	<b>159,9</b>

## Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan % da)*



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,0 % ni yoki 86,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,9 % punktga ko'payib, 67,7 % ni yoki 1932,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,9 % punktga kamayib, 835,5 mlrd. so'mni yoki 29,3 % ni tashkil etdi.

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

*( jamiga nisbatan % da)*



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 13,7 % punktga kamaydi va 56,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 43,2 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 13,7 % punktga ko`paydi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

*( 2019 yil yanvar-oktyabr)*

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3861,1</b>	<b>2854,6</b>	<b>472,2</b>	<b>534,3</b>
<b>shaharlar:</b>				
<b>Qarshi</b>	<b>1124,9</b>	<b>833,4</b>	<b>137,9</b>	<b>153,6</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>216,6</b>	<b>162,6</b>	<b>26,9</b>	<b>27,1</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>G'uzor</b>	<b>140,9</b>	<b>107,5</b>	<b>17,8</b>	<b>15,6</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>114,2</b>	<b>84,0</b>	<b>13,9</b>	<b>16,3</b>
<b>Qamashi</b>	<b>107,6</b>	<b>81,9</b>	<b>13,5</b>	<b>12,2</b>
<b>Qarshi</b>	<b>348,3</b>	<b>252,9</b>	<b>41,8</b>	<b>53,6</b>
<b>Koson</b>	<b>420,6</b>	<b>314,0</b>	<b>51,9</b>	<b>54,7</b>
<b>Kitob</b>	<b>271,8</b>	<b>201,2</b>	<b>33,3</b>	<b>37,3</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>105,7</b>	<b>77,3</b>	<b>12,8</b>	<b>15,6</b>
<b>Muborak</b>	<b>187,0</b>	<b>137,4</b>	<b>22,7</b>	<b>26,9</b>
<b>Nishon</b>	<b>92,5</b>	<b>67,5</b>	<b>11,2</b>	<b>13,8</b>
<b>Kasbi</b>	<b>133,9</b>	<b>98,6</b>	<b>16,3</b>	<b>19</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>278,7</b>	<b>203,3</b>	<b>33,6</b>	<b>41,8</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>104,6</b>	<b>76,7</b>	<b>12,7</b>	<b>15,2</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>213,8</b>	<b>156,3</b>	<b>25,9</b>	<b>31,6</b>

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'ati

*(o'tgan yilning shu davriga nisbatan % da)*



## Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

### Qarshi shahri (122,1 %):

- Qarshi shahridagi "Home Spot" qurilish gipermarketining qurilishi;
- "Ulug'bek" markaziga qarashli yangi xususiy maktabgacha ta'llim muassasasining qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar ob'ektlarning qurilishi.

### Shahrisabz shahri (115,6 %):

- Qarshi-Kitob temir yo'lini elektrlashtirish (110 kv havo liniyalari) ;
- "Do'stlik" nasos stansiyasining qurilishi;
- "KOIKA" o'quv markazining rekonstruksiya qilinishi;

### Kitob tumani (115,8 %):

- Cement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Qarshi Conch Cement" MCHJ ning qurilishi ;
- Yangiobod massivida arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi;

### Koson tumani (111,7 %):


- "Koson Neft Gaz Qidiruv Ekspedisiyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qidiruv burg'ulash ishlaring olib borilishi ;
- Neft va gaz uskunalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga mo'ljallangan sex qurilishi.

### Chiroqchi tumani (113,7 %):

- "Ma'danli suv" ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar va noturar bino va inshootlarning qurilishi.

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan % da)*



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,0 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past

mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past

ulushi esa Dehqonobod hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 22,2 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Dehqonobod (58,5 %) hamda G'uzor (53,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **A.Isaev**  
Aloqa telefoni: **(75) 221-32-47**